

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA HUQUQIY MEXANIZMLAR

Xurshidova Rofiyaxon Odil qizi ¹

¹ O'zbekiston Finladiya pedagogika insitutining akademik

litseyi 1-kurs talabasi.xurshidovarofiya@gmail.com

97 179 07 08

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 20.01.2025

Revised: 21.01.2025

Accepted: 22.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

atrof-muhit muhofaza qilish, ekologik huquq, tabiiy resurslar, ekologik barqarorlik, milliy qonunchilik, ekologik siyosat, muhofaza qilish strategiyalari, litsenziyalash.

atrof-muhitni muhofaza qilish, zamonaviy jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslarni oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ekologik huquqiy mexanizmlarning samaradorligi, ularning amaliyotdagi qo'llanilishi va muammolarini aniqlash shuningdek, ekologik monitoring, litsenziyalash, va jinoiy javobgarlik kabi mexanizmlar orqali atrof-muhitni muhofaza qilishda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkinligi yoritilgan.

KIRISH. Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash hamda sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadida: Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, taqdimnoma hamda ko'rsatmalari davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining, O'rmon xo'jaligi agentligi — O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining, Gidrometeorologiya xizmati agentligi — Gidrometeorologiya xizmati markazining vazifa va funksiyalarini bajarishga oid huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi; Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan qayta tashkil etilayotgan, tugatilayotgan, o'zgartirilayotgan va boshqa tashkilotlar tizimiga o'tkazilayotgan tashkilotlarga biriktirilgan ko'chmas mulk obyektlariga va boshqa mol-mulkka bo'lgan huquqlar tegishli yig'imlar va boshqa to'lovlar undirilmagan holda qayta rasmiylashtiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Tabiatni muhofaza qilish - tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro doirada qo'yilgan qadamlardan birinchisi 1913 yilda Bernda (Shvetsariya) 18 ta davlat ishtirokida "Tabiatni muhofaza qilish" bo'yicha xalqaro konferentsiya o'tkazish bo'ldi. 1923 yilda esa Parijda birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo'lib o'tdi. 1928-yilda Bryusselda (Belgiya) "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" ochildi. Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga e'tibor bir muncha kuchaydi. 1945 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishi munosabati bilan atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik ushbu xalqaro tashkilot faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida rivojlana boshladi. BMT xalqaro ekologik hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish yo'lida ko'p ishlarni amalga oshirdi. Dastlab 1948 yilda BMT tashabbusi bilan "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" "Tabiatni muhofazalash xalqaro ittifoqi"ga aylantirildi. Hozirgi kunga kelib ushbu ittifoq faoliyatida dunyoning 118 mamlakatidan 636 ta davlat va jamoat tashkilotlari ishtirok etmoqda. Atrof-muhit muhofazasi masalalariga dunyo jamoatchiligi e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadida 1972 yili BMTning 1-jahon kongressida har yili 5 iyunni "Xalqaro tabiatni muhofazalash kuni" sifatida nishonlash qarori e'lon qilindi. Shu yili BMT Bosh Assambleyasining 27-sessiyasida davlatlararo hamkorlikning tashkiliy va moliyaviy tadbirlarini belgilovchi "Tashqi muhit bo'yicha BMTning ish dasturi" (YUNEP) va uning

Boshqaruvchilar kengashi ta'sis etildi.1982 yilda BMT Umumjahon tabiat xartiyasini tasdiqladi. Uni insonning tabiatga munosabatini belgilovchi o'ziga xos kodeksi deyish mumkin. Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 50, 54, 55 va 100-moddalarida fuqarolarning ushbu sohadagi huquq va majburiyatlari, atrof-muhitga munosabat va boshqaruv tizimi bo'g'inlarining faoliyati belgilangan. Jumladan, 50-moddada "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir", deyiladi.100-moddada atrof-muhitni muhofaza qilish mahalliy hokimlik organlari vazifasiga kirishi ta'kidlangan.Shuningdek, 1996 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Qonun 30 ta moddadan iborat bo'lib, unda atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlari, standartlar va me'yoriy hujjatlar, havo muhitiga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik kabi moddalar mavjud. Huquqiy mexanizmlar atrof-muhitni muhofaza qilishda qonunlar, normativ hujjatlar, xalqaro shartnomalar va boshqa huquqiy aktlar to'plamini anglatadi. Ular atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha qoidalarni belgilaydi.Xalqaro darajada atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan bir qator konvensiyalar va shartnomalar mavjud. Ular orasida: ushbu dastur atrof-muhitni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.Iqlim o'zgarishini kamaytirish maqsadida davlatlar o'rtasida imzolangan shartnoma. Tabiiy xilma-xillikni muhofaza qilish va uni barqaror ravishda boshqarish.Har bir mamlakat o'zining atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarini ishlab chiqadi. O'zbekistonda ham bu borada qator qonunlar va normativ hujjatlar mavjud:

- Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun: ushbu qonun atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.
- Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonun: yangi loyihalar va faoliyatlarni ekologik jihatdan baholashni talab qiladi.

Ekologik monitoring atrof-muhit holatini kuzatish va baholash jarayonidir. Bu jarayon orqali atrof-muhitdagi o'zgarishlar, ifloslanish darajasi va tabiiy resurslarning holati haqida ma'lumot to'planadi. Monitoring natijalari asosida ekotizimlarni himoya qilish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.Atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxslar yoki tashkilotlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bunga ekologik qonunbuzarliklar, masalan, noqonuniy chiqindilarni tashlash yoki tabiiy resurslarni noqonuniy ravishda ekspluatatsiya qilish kiradi. Qonunlar orqali bunday harakatlarga nisbatan jazolar belgilangan.Davlat ekologik siyosatini

ishlab chiqishi va amalga oshirishi kerak. Bu siyosat atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni o'z ichiga oladi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda huquqiy mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Ular orqali atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin. Har bir fuqaro va tashkilot atrof-muhitni himoya qilishda o'z mas'uliyatini his qilishi zarur, chunki bu nafaqat hozirgi avlod, balki kelajak avlodlar uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-1996.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T
3. Xolmo'minov J.T. Atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi va ozon qatlami buzilishi oldini olishning xalqaro huquqiy asoslari//Falsafa va huquq.-2009.
4. Shoimov N.B. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari//O'zbekiston Respublikasi IIV akademiasining Axborotnomasi.
5. <https://lex.uz/mact/-5801426>
6. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/atrof-tabiiy-muhitni-muhofaza-qilishning-xalqaro-va-milliy-huquqiy-standartlari>